

**SOVETLAR DAVRIDA MUSULMON DINIY TASHKILOTLARI
FAOLIYATIGA CHEK QO'YILISHI.**

Tojiboyev Munavvarjon No'monjonovich
O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
Farg'onan akademik litseyi tarix fani bosh o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Sovet davrida musulmon diniy tashkilotlar faoliyatiga chek qo'yilishi va jarayonda olib borilgan ishlar haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'z: «Bezbojnik» («Xudosiz»), shuningdek «Antirelegioznik», «Bezbojnik», «Derevenskiy bezbojnik» («Qishloqlik xudosiz»), «Yuniy bezbojnik» («Yosh xudosizlar»).

Sovet jamiyati tarixida 1920-yillarning oxiri 30-yillarda diniy muassasa va tashkilotlar hamda din peshvolari, dindorlarga nisbatan munosabat o'ta reaksiyon, shafqatsiz tarzda bo'lib, ateistik harakatning keng miqyosida kuchayishi bilan ta'riflanadi. Butunittifoq xudosizlar uyushmasi o'zining tashviqot va targ'ibotchilik ishini olib borar ekan, ishchi va dehqon ommasi o'rtasida qishloqlarda muqaddas joylarning «soxtaligi» va «asossizligi»ni isbotlashga urinish, dindorlarni burjuaziya va mayda burjuaziya tarafdozlari sifatida qoralash, sotsializmga dushmanlikda ayplash, muqaddas avliyolar mozorlariga borib ziyyarat qilish, diniy marosimlarni zararli ekanligi keng targ'ib qilish fikrlari matbuot organlarida ko'plab chop etildi. 1925-1947-yillar davomida faoliyat yuritgan Butunittifoq xudosizlar uyushmasi sovet hokimiyatining targ'ibot-tashviqot organi hisoblanib, diniy muassasa va tashkilotlar faoliyatiga qarshi dahriylik siyosatining bosh tashkilotchisi bo'ldi.

1929-yil 10-11 iyun kunlari Moskvada bo'lib o'tgan Butunittifoq xudosizlar uyushmasining II s'ezdi markaz va uning barcha Ittifoqdagi respublika bo'limlarini "kurashchan xudosizlar" deb nomlashga qaror qiladi. 1920 yillarning oxiri 30-yillarda markaz dahriylik siyosatining asosiy fikr tarqatuvchisi bo'ldi. Butunittifoq xudosizlar uyushmasi 1920 yillarning oxirida 14 ta tilda, 18 ta nashrlariga ega bo'ldi. Uyushma xaftalik gazetasi «Bezbojnik» («Xudosiz»), shuningdek «Antirelegioznik», «Bezbojnik», «Derevenskiy bezbojnik» («Qishloqlik xudosiz»), «Yuniy bezbojnik» («Yosh xudosizlar») singari markaziy jurnallarni chop ettirdi. «Kurashchan ateizm» jurnali ham dinni «fosh etish» matbuot markazlaridan biriga aylandi. Yuqorida qayd etilgan markaziy jurnallar bilan bir qatorda boshqa millatlarning tilida ham gazeta va jurnallar chop etildi, mahsus byuletenlar chiqarildi. Jumladan, ukrain tilida «Bezvernik» («Dinsiz») bir xil nomdagi gazeta va jurnal, tatar tilida esa «Sgushchan allasizlar» («Kurashchan xudosizlar»), yaxudiy tilida «Anikuyres» («Xudosiz»), arman tilida «Anastvast» («Xudosiz») kabi jurnallar oyda bir marta, yil davomida 12 ta soni muntazam nashrdan chiqib turdi.

1920 yillarning ikkinchi yarmi 30-yillarda Sovet Armiyasi jangchi va zabitlari orasida ham xudosizlikka da'vat etuvchi tashviqot va targ'ibot ishlari yuritilib, 1929 yil Qizil Armiya harbiy texnikalaridan «Xudosizlar samalyoti», 1931 yil iyundan esa «Kurashchan xudosiz» tanki, Baltika flotida «Kurashchan xudosiz» suv osti kemasi, bundan tashqari «Ukrainalik xudosiz», «Gruziyalik xudosiz», «Berabidjan xudosizlari» nomidagi samalyotlar, «Urallik xudosiz» tank kolonnasi mavjud bo'lib, ular dingga qarshi

kurash olib borish ramzlariga aylangan edi.

1930 yillarda Markazning dinga qarshi olib borayotgan shafqatsiz siyosati bu hayotiy zaruriyat ekanligini isbotlash maqsadida, davlat va hukumat rahbarlari, ziyolilar va ilmiy jamoatchilik dahriylik targ‘ibotiga keng jalg qilindi. Ushbu harakatda ishtirok qilmagan kishilar zo‘ravonlik va tazyiq o‘tkazish yo‘li bilan obro‘-e’tibori hamda egallab turgan lavozimlaridan mahrum qilindi. Ma’lumotlarga qaraganda Sovet Ittifoqida «Xudosizlar uyushmasi” a’zolari, muxbir, dehqon va ishchilar hamda uyushma faollarining soni 1920 yilda 100 ming kishini, 1929 yilda 700 ming kishini, 1932 yilga kelib esa 5,5 mln. kishini tashkil qilgan. Tashkilotga 2 milliondan ortiq yoshlar jalg qilingan. Yuqoridagi raqamlar shuni ko‘rsatadiki partiya organlari, ayniqsa yoshlar orasida dinga qarshi tashviqot-targ‘ibotni keng ko‘lamda olib borilganligini ko‘ramiz.

«Kurashchan xudosizlir” uyushmasi markaziy boshqarmasi, hamda viloyat, shahar boshlang‘ich tashkilotlari uchun O‘zbekiston SSR Moliya Xalq komissarligi 1937 yilda ajratgan xarajatlari 80 ming so‘mni tashkil qilib, qolgan xarajatlar mahalliy budgetlar hisobidan qondirilgan. Ushbu tashkilotlarni saqlab turish uchun 712.600 so‘m miqdorda mablag‘ sarflangan⁵⁴, 1938 yilda bu xarajatlar bir oz kamaytirilib, 438.738 so‘mni tashkil etgan. 1920 yillarning ikkinchi yarmida dinga qarshi kurash olib borish maqsadida «Xudosizlar” uyushmasining o‘nlab yacheyskalari tashkil qilinadi. 1924 yildayoq To‘rtko‘lda (Qoraqalpog‘iston) «Xudosizlar” uyushmasining dastlabki yacheykasi tashkil topgan edi. 1929 yilga kelib 4 ta yacheyska, 1938 yil esa Qoraqalpog‘iston hududida ularning soni 115 taga yetdi. Birgina, To‘rtko‘l tumanining o‘zida 144 ta ateist faollar dinga qarshi targ‘ibot ishlarini olib borishgan.

O‘zbekiston SSRda dinga qarshi targ‘ibot olib boruvchilarning 1940 yilning yanvar oyida bo‘lib o‘tgan kengashida, 1939 yilda dahriylik mavzulariga oid 5000 ta ma’ruza va dokladlar, 3000 ta o‘quv va munozara kechalari o‘tkazilganligi, bu tadbirdarda esa 300000kishi ishtirok etganligi Respublika «Xudosizlar” uyushmasining 3300ta mahalliy tashkilotlarida 112000 faollar ish olib borayotganligi ta’kidlanadi. «Xudosizlar” uyushmasining faoliyatidagi ayrim kamchiliklar Samarqand va Buxoro viloyatlari misolida tahlil qilinib, ba’zi hollarda dindorlarga nisbatan «rahmdillik” qilinayotganligi bayon qilinadi. Dinga qarshi «Xudosizlar” uyushmasi a’zolari tomonidan tashkil qilinayotgan ma’ruzalarning mavzulari markazdan ham mutassil tavsiya qilib borilgan. Joylarda «Din-besh yillik rejalarining to‘sig‘i”, «oktabr va din”, «Hosil kuni va jamoalashtirish orqali dinga qarshi kurash”, «Sotsialistik musobaqa va din bilan kurash”, «Din-xalq uchun afyundir”, «Markscha-leninchha ta’limot- din haqida”, «Qurban hayitireaksion dindorlarning quroli”, «Dindorlar xorij razvedkasi xizmatida”, kabi o‘nlab ma’ruzalar o‘qib turilgan.

Respublikaning ko‘pgina rayonlarida matbuot, radio, teatr, klub, muzey, ko‘rgazma, ma’ruza, suhbat, savol-javob kechalari kabi vositalar bilan birgalikda dahriylikni targ‘ib qiluvchi «eng yaxshi she’r”, «dinga qarshi ocherk”, «dinga qarshi karikatura” kabi tanlovlardan ham uyushtirilgan. «Xudosizlar” uyushmasi tomonidan o‘tkazilgan tadbirdarda «tezda dinni tugatamiz!» shiori ostida ish ko‘rilgan. 1930 yillarning oxirlarida garchi xayolparastlik bo‘lsada dindorlarni «jamiatdan supurib tashlash” uchun sovet hukumati barcha imkoniyatlarini ishga soldi. Moddiy xarajatlar, ommaviy axborot vositalari hamda bu yo‘nalishdagi madaniy-oqartuv muassasalari faoliyat olib borayotgan xodimlarga katta

miqdorda mablag‘ ajratildi. Maqsad xalqning ongidan va qalbidan diniy tushunchalarni chiqarib tashlash diniy marosimlarga butunlay chek qo‘yish, dahriylik siyosatini qaror toptirishdan iborat edi.

1937-39 yillarda «Xudosizlar» uyushmasi sarf-xarajatlari bilan bog‘liq bo‘lgan raqamlar shuni ko‘rsatadi, bu esa iqtisodiy qudratini tiklab olishga ulgurmagan O‘zbekiston SSR uchun og‘ir-oqibatlarga olib kelganligiga isbot talab qilmaydi. Andijon shahrida 1938-39 yillarda 71 ta masjid, 1 ta rus cherkovi, 3 ta yaxudiy senagogi bo‘lib, ularda diniy marosimlarni bajarishga turli yo‘llar bilan to‘sinqilik qilingan. O‘zining diniy qadriyatları va islom muassasalarini saqlab qolish maqsadida aholining hashar yo‘li bilan mablag‘ to‘plash ishlari ham hukumat organlari tomonidan ulamolar targ‘iboti deb tushinilgan. Bu esa dindorlarni ta’qib qilish uchun o‘ylab topilgan navbatdagi bohonalardan biri bo‘lgandi. 1940-yilda birgina Farg‘ona viloyati hududida “Kurashchan xudosizlar” yacheykalarining soni 2243 taga yetgan, a’zolari soni esa 45824 nafarni tashkil etgan. Shuningdek, o‘lkada 272 ta agitator, 210 lektorlar shahar va qishloqlarda dinga qarshi targ‘ibot ishlarini orlib borishgan. Sobiq ittifoq ikkinchi jahon urushiga kirdunga qadar “Kurashchan xudosizlar” uyushmasi diniy muassasa va dindorlarga nisbatan dahriylikka asoslangan siyosatini bo‘sashstirmagan. Uzlusiz ravishda respublika va viloyat partiya qo‘mitalarining targ‘ibot-tashviqot bo‘limlari “Kurashchan xudosizlar” uyushmasining yil davomida qilgan tashkiliy ishlariga rahnamolik qilgan, yil davomida qilingan ishlar hisoboti, tashkilotning faoliyatidagi kamchiliklar muhokama qilinib, yangi ko‘rsatmalar berib borilgan. XX asrning 30-40 yillarida madrasalar faoliyatiga chek qo‘yilgan bo‘lsada, sovet hokimiyyati muassasalarini zo‘ravonlik siyosati, dinga e’tiqod qiluvchi aholini diniy amallarini bajarishiga, masjidga borib namoz o‘qishiga butunlay to‘sinq qo‘ya olmadi. 1940-yil sentyabrida bo‘lib o‘tgan Farg‘ona viloyat partiya qo‘mitasi yig‘ilishida barcha shahar va qishloq sovetlari kengashi raislari o‘z hududlaridagi diniy muassasalarni qat’iy nazorat qilish, qayta ro‘yxatdan o‘tkazish, yaroqsiz qolgan masjid binolarini buzib yuborish va undan chiqqan qurilish ashyolarini “Qurilishsavdofond” tashkilotiga boshqa maqsadlarda ishlatish uchun berilishi ta‘kidlandi. 1929-1941-yillar davomida “Kurashchan xudosizlar” uyushmasi sovet hokimiyatining diniy muassasa va tashkilotlar faoliyatiga butunlay barham berish ishida qilgan rahnamoligi jamiyatda o‘zining asoratli izini qoldirdi. Xullas, 1929-1941-yillarda shafqatsiz dahriylik siyosatining yuritilishi dindorlarga o‘zlarini uzoq vaqt o‘nglay olmaydigan darajada zarba berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alimov I.A. O‘zbekistonda vaqf mulklarining tugatilishi (1917 – 1929 yillar). - Toshkent: Fan, 2009.
2. Ziyoev H. O‘zbekiston mustaqilligi uchun kurashlarning tarixi (miloddan oldingi asrlardan to 1991- yil 31- avgustgacha).-Toshkent: Sharq, 2001.
3. Shamsutdinov R., Rasulov B.Turkiston maktab va madrasalari tarixi (XIX asr oxiri va XX asr boshlari).-Andijon: Andijon, 1995.
4. Mustafaeva N. O‘zbekistonda sovet hukumatining diniy siyosati. //O‘zbekiston tarixi.- №2, 2005.
5. Madumarov Ilg‘orjon Ravshanjonovich. “O‘zbekistonda diniy usul maktablari va

masjid madrasalar faoliyatining sovetlar tomonidan ta’qib etilishi (1917-1950 yillar)”
magistrlik dissertatsiyasi.